

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.F.Gaybullayeva	
No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar	835
Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova	
Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv erozijasiga qarshi kurashning samarasi	838
M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova	
Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari.....	841
S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov	
Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition	847
M.T.Abdullayeva, M.Nazarov	
Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati	850
M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova	
Soil pollution by waste and measures to it prevent	854
D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova	
Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari	857
D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova	
Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi	862
Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova	
O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar	868

ILMIY AXBOROT

Z.V.Alimova, M.A.Usmanova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar va forsiy izofa haqida	871
X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova	
Isajon Sultonning "Ozod" romanida intertekstuallik	876
M.A.Jo'rayeva	
Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni.....	880
A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova	
Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi	884
I.I.Rustamova, D.A.Abdurahobova	
Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari	887
A.G.Sabirdinov	
Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida	890
A.A.Qayumov	
Hastalangan ruhiyat tasviri	894
R.M.Umurzakov	
Avtobiografik qissalarda bola obrazi	899
Q.V.Yo'lchiyev, A.Charos	
Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida ironiyaning o'rni	903
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq leksemalar xususida	907
G.A.Ikromova	
Dramalar tilida antroponimlarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida).....	913
I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva	
Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar	918
N.A.Abdualiyeva	
Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi	922
A.R.Dadajonov	
Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi.....	927
D.R.Teshaboyev	
Havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qarishliqlik	930
I.T.Axmadjonov, A.R.Dadajonov	
Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari	936



UO‘K: 821.512.133.09-3

**ISAJON SULTONNING “BOQIY DARBADAR” ASARINING BADIY XUSUSIYATLARI
PROIZVEDENIYE ISADJONA SULTANA “BAKI DARBADAR” – ORIGINALNOST
SYUJETA**

ISAJON SULTAN'S WORK BAQI DARBADAR IS THE ORIGINALITY OF THE PLOT

Rustamova Ibodat Ikramovna¹ 

¹Farg‘ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori

Abduvahobova Dilyora Abduljalil qizi²

²Farg‘ona davlat universiteti, talaba

Annotatsiya

Ushbu maqolada Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asarida syujetning o‘ziga xosligi xususida so‘z yuritiladi, asarlardagi syujet ko‘rinishlariga, asar badiyatiga e‘tibor qaratilib, ilmiy xulosalar chiqarishga erishiladi.

Аннотация

В данной статье говорится о своеобразии сюжета в произведении Исаджона Султана «Баки Дарбадар», обращая внимание на сюжетные ракурсы в произведениях, оригинальность произведения и делая научные выводы.

Abstract

This article talks about the originality of the plot in Isajon Sultan's work "Baqi Darbadar", paying attention to the plot views in the works, the originality of the work, and drawing scientific conclusions.

Kalit so‘zlar: syujet, syujet turlari, modernizm, postmodernizm, retrospektiv syujet, assotsiativ syujet, xronikal syujet, konsentrik syujet

Ключевые слова: сюжет, типы сюжета, модернизм, постмодернизм, неперспективный сюжет, ассоциативный сюжет, хронический сюжет, концентрический сюжет

Key words: plot, plot types, modernism, postmodernism, retrospective plot, associative plot, chronic plot, concentric plot

KIRISH

Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligi haqida so‘z borganida, qariyb o‘ttiz yilga teng vaqt oralig‘idagi badiiy tafakkur namunalari nazarda tutiladi. O‘tgan yillar davomida turli mavzu va yo‘nalishdagi yuzlab romanlar dunyoga keldi. Ayniqsa, istiqloqlning dastlabki o‘n yilligida o‘ziga xos romanlar ko‘plab yozildi. Ana shunday o‘ziga xos romanlar sirasiga Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanini kiritish mumkin. Roman haqida juda ko‘plab olimlar fikr bildirdilar. “Boqiy darbadar” romani tom ma‘noda yozuvchining ijodiy salohiyatini, uning o‘ziga xos yo‘nalishini belgilab beradi. Olimlar asarni o‘zbek romanchiligidagi yangi hodisa deya baholashadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotshunos D. Quronov roman haqida shunday yozadi: “Boqiy darbadar”da an’anaviy eposga xos voqeaband syujet o‘rnida sirdan bir- biriga bog‘lanmay turli makon va zamonda, goh reallik, gohi xayolatda kechuvchi voqealar tasvirlangan, markazida risoladagidek qahramon turmagan bo‘lsa-da, ularni bir narsa – hayotning ma‘nisiyu bashariyat taqdiri haqida o‘yga tolgan muallif shaxsi birlashtiradi, yaxlit butunlikka, romanga aylantiradi [1.17.] D.Quronovning mazkur ta‘rifidan keyin aytish mumkinki, romanda postmodernizm yo‘nalishi kuchli ta‘sir o‘tkazadi. Olamni uzuq-yuluq turli pragmentlar bilan tasvirlashga urinishi postmodernizmning asosiy qonuniyati hisoblanadi.

NATIJALAR

“Romanlar odatda hajm jihatidan kattaroq bo‘ladi. Lekin Said Ahmadning so‘zi bilan aytadigan bo‘lsak romanning romanligi uning hajmida emas, balki ma‘no ko‘lamida. Bu roman ham aynan shu

ko'rinishidagilardan-qisqa ammo ko'lamini keng. Yozuvchining o'zining ta'kidlashiga qaraganda roman ustidagi ish 1998-yilda boshlangan va uning ustida uzoq ish olib borilgan. Qariyb 12 yil davomida yozilgan asar albatta juda yaxshi bo'lishi kerak va u aynan shunday. Romanda yaxlit bir voqea- hodisa yoki yaxlit qahramonlar tizgisi yo'q, biroq unda juda uzun ma'nolar tizgisi bor. Umuman asarda tilga olinadigan darbadarlik qaysidir ma'noda hammamizning boshimizda borammo asarda aytilgan darbadarlardan bu shunchaki aniq ko'zga tashlanadi. [1. 17.]”.

MUHOKAMA

“Boqiy darbadar” ning janrini muallif roman deb belgilabdi. Ehtimol ayni hol didi an'anaviy romanlar ruhida tarbiyat topgan o'quvchida e'tiroz uyg'otar ham. Axir, bunda yaxlit bir voqea bo'lmasa, ko'p planli syujet asosida voqelik keng epik manzarasi tasvirlanmagan bo'lsa, markazida qahramon turmasa... nimasi roman?! Jahon adabiyoti tajribalaridan, xususan, G'arbda yarim ilgari boshlangan “yangi roman” bobida izlanishlardan ozmi-ko'pmi xabardor o'quvchida e'tiroz tug'ilmasayam kerak. Zero, “Boqiy darbadar” da an'anaviy eposga xos voqeaband syujet o'rnida sirtidan bir-biriga bog'lanmay turli makon va zamonda, goh reallik, goh xayolotda kechuvchi voqealar tasvirlangan, markazida risoladagidek qahramon turmagan bo'lsa-da, ularni bir narsa __ hayotning ma'nisiyu bashariyat taqdiri haqida o'ylarga tolgan muallif shaxsi birlashtiradi, yaxlit butunlikka _ romanga aylantiradi....

“Romanlar odatda quyidagi so'z borayotgan asarga nisbatan kattaroq bo'ladi. Lekin Said Ahmadning so'zi bilan aytadigan bo'lsak romanning romanligi uning hajmida emas balki ma'no ko'lamida. Bu roman ham aynan shu ko'rinishidagilardan-qisqa ammo ko'lamini keng. Yozuvchining o'zining ta'kidlashiga qaraganda roman ustidagi ish 1998-yilda boshlangan va uning ustida uzoq ish olib borilgan. Qariyb 12 yil davomida yozilgan asar albatta juda yaxshi bo'lishi kerak va u aynan shunday. Romanda yaxlit bir voqea- hodisa yoki yaxlit qahramonlar tizgisi yo'q, biroq unda juda uzun ma'nolar tizgisi bor. Umuman asarda tilga olinadigan darbadarlik qaysidir ma'noda hammamizning boshimizda borammo asarda aytilgan darbadarlardan bu shunchaki aniq ko'zga tashlanadi. ”Mening bu ishimda “Boqiy darbadar” asarida syujetning o'ziga xos o'rnini bilan tanishtiraman. Boshida aytib o'tganimdek syujetning 4 turi mavjud edi. Bu romanda ham syujetlarning har xil turini ko'rish mumkin. Masalan:

“Hazratni u bundan o'ttiz uch yil avval uchratgan edi. Hazrat yolg'izoyor yo'lda hassasini tutganicha kelarkan, bola adir yonbag'rida qamishdan nay yasab o'tirar, sal narida qo'ylari o'tlab yurishardi.

Hazrat shu atrofda daraxt shoxlarida qora chumchuqlarning to'planib olganini ko'rdi. Boshqa qushlardan farq qilib, bular na don-dun terar, na sayrar, na shoxda-shoxga uchib-qo'nar, faqat kichkina sarg'ish ko'zlarini tikkancha nimanidir sabr-toqat bilan kutishardi”. Mana bu joyini o'qir ekanmiz voqea birdaniga orqaga qaytadi. Bunda ko'rinadiki, syujetning retrospektiv- orqaga qaytish turini keltirib chiqargan. Ya'ni birinchi asar boshida tugun berdi. Nima uchun u ulug' insondi qatil qilishga olib kelishyotganiyu etikdo'z u ulug' insondi ustidan kulgani. Nega aynan o'sha etikdo'z undan ham boshqa olamon ichida odamlar bor ediku. Mana nega asarlarda syujet kerak. Bu asarning ham boshlanishi tugun bilan boshlanmoqda bu yerda syujetni yuzaga kelishiga olib keladi. Avvalroq aytgan edik, syujetning elementlari: pralog, ekspazitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim, epilog. Mana sanab o'tilganlarni ichida tugun bor bu syujetning elementi ya'ni yuzaga kelishi uchun yordamchi vazifasini bajaradi. Syujet linyasi nechta bo'lsa, yechim, kulminatsiya,tugun ham shuncha bo'ladi. Asarni yana o'qishni boshlar ekanmiz syujetning ketma-ketlikda berilganini anglashimiz mumkin. “Boqiy darbadar” roman o'qishda davom etilsa asar davom etayotganida voqealar orasidagi vaqtlar uzoq-uzoq beriladi. Masalan Etikdo'z quvg'in bo'ladi shu ketganicha yuz yilda vataniga qaytadi. Bu etikdo'z endi to qiyomatgacha abadiy barhayot, inson zotining dunyoga kelib ketishi, qilmishlarini ko'rishga mahkum. Romanda uch, to'rtagina obrazlar ishtirok etadi xolos. Lekin shu obrazlarning ham ismi berilmaydi. Masalan etikdo'z dib berilgan asarda aniq ism va sharifi qayd etilmagan. Asarni o'qish vaqtida seziladiki, asar voqealar bir makon va zamonda kechmaydi. Romanda asosiy g'oyasi-iymon! E'tibor berish kerakki, voqealar rivoji, syujetlar turlicha kechgan, asar ikki ming yil ilgari osiyolik tarixi bilan boshlangan bo'lsa, keying o'rinlarda zamonaviy, globallashtirilgan dunyo haqida ham so'z boradi.

Etikdo'z- butun insoniyatning timsoli.Asarda yuqorida ta'kidlanganidek, bir qancha voqealar, ramzlar keltiriladi. Lekin ularning hammasini- “Boqiy darbadar” birlashtirib turadi. G'ordagi avliyo ham, badaviylar ham, sun'iy insonlar ham- hamma hammasi bir maqsadda asarga kiritilgan. Romanni qayta va qayta o'qish kerak. Har safar asarni o'qiganimiz sari uning ochilmagan qirralari ochilaveradi. “Boqiy darbadar'da muallif, muayyan qahramon ham, uning atrofidagi voqealar ham biri-biri bilan bog'lanmaydigan qilib yozgan. Asarda umumbashariy muammo ko'tarilgan. Bu esa romanning qimmatini oshirishga yordam beradi.

ILMIY AXBOROT

Asar diniy va dunyoviy dallilar asosida millat, xalq va davlatlarga birdek tegishliligi bilan ajralib turadi.

“Aytadilarki, u yana bir necha yuz yil Tangri Taoloning boshqa bir bilimli va barhayot bandasini-Xizr alayhissalomni izlab dunyo kezgan. Shu bois uni yana Qizil dengiz sohillarida ko‘rishgan. Muso alayhissalomning savatidagi baliq dengizga tushib ketgan joyda yillar o‘tirgan.U holda, Xizr alayhissalom olamda bunday badbaxt yashayotganidan albatta xabar topgandir? Lekin ro‘para kelganlarmi- yo‘qmik- hech kim bilmaydi.

Uchrashganida ham –Xizr alayhissalomdan mujda kutolmasligiga uning aqli yetgan, albatta.Chunki qismatlarni faqat Parvardigorgina belgilaydi [2. 26.] ”. Mana asarning bu joyida ham yozuvchi o‘tmishni eslamoqda. Bundan ko‘rinadiki, romanning syujeti ortga qaytmoqda ya‘ni bo‘lgan voqeani eslashga harakat qilyapti. Bu esa romani syujeti retrospektiv turini hosil qiladi desak xato bo‘lmasa kerak.

___ Bir yerda muqim hayot kechirish bilan tinimsiz darbadarlik o‘rtasida qanchalar farq bor?__ dedi mehmon.__ Buni menga aytgan edi. “Sen-ku avomning ko‘zida zohiran bir duo tufayli shunday qismatga mahkum etilasan. Ammo umring mobaynida o‘z hayoti davomida ilohiy mujdani rad etib, darbadarlikni bo‘yinlariga olgan sanoqsiz kishilar olomonini ko‘rasan. Ularning hayoti senikidan zarracha ham o‘zga bo‘lmaydi, biroq sendan farq qilib, og‘ir va azobli o‘lim topishadi. Lekin tarixda sening noming qoladi, boshqalar esa aynan shu qismat bilan yashashsa-da, yer yuzida benomu nishon supurilib ketishadi [2. 17.]”,__ degan edi. Mana bu yerda ham voqealar birinma-ketinlikdan keyin yana ortga qaytadi. Bu yerda syujetning bir turini ko‘rish mumkin. Masalan: Buni menga aytgan edi, deb aytgan joyida voqea ortga qaytadi ya‘ni eslash orqali o‘tmishga yuzlanadi. Biz boshida aytganimizda syujetning turlarini sanayotgan paytimizda retrospektiv syujet, voqea to‘xtab o‘tmishga qaytadi. O‘tmishda bo‘lgan voqea yodga olinadi.

Romanning hikoyachalarning sarlavhasi: Birinchi qism; “Ibtido”, “Hazratning bashorati”, “Duoyibad”, “Badaviylar”, “Sahrodagi karvon”, “Tiyonshon bag‘ridagi istiqomat qiluvchi avliyo”. Ikkinchi qism; “Boeng 787 dreamliner. Yo‘nalish: Amerika- Markaziy Osiyo”, “Xalqaro anjuman”, “Murojaat”, “Osiyo. G‘-22 “Raptok” harbiy uchoqlari”, “Boeng 787 dreamliner.Professor ziyo”, : “Avlod”, “Timsollar charxpalagi”, “Bobo toshbaqa maqbarasi. Hijratning 190-yili”, “Shahri haybar”, “Mening shahri haybarim” kitobining so‘nggi bobidan parcha”, “Luvr, milodiy 1312-yil “Mangu darbadarning qaytishi” pesasi premerasi”. Uchinchi qism: “Boeng Dreamliner. Bo‘rondan yarim soat avval”, “Mutafakkirning vido maktubi”, “Bo‘rondan besh daqiqa avval”, “Boeng 787 dreamliner. Bo‘rondan o‘n daqiqa avval”, “Mezonul-avzon”, “Bo‘ron”, “Xotima” qismlaridan tashkil topgan. Mana asarning qismlarini sanab o‘tik bundan ko‘rinib turibdiki, voqealar rivoji birinma-ketin bo‘ladi.

XULOSA

Adabiyotda-biror asarning asosiy g‘oyasi. Konsepsiya badiiy asar mohiyatini, ijodkorning “men”ni ifoda etadi. Biroq badiiy asar konsepsiyasi ayrim holatlarda muallifning subektiv qarashlaridan keng qamrovli bo‘lishi mumkin. Ba‘zan muallif mo‘ljaliga zid holat yuz bersa ham, mohiyat e‘tibori bilan asar o‘z konsepsiyasiga ko‘ra muallifning badiiy-estetik olamiga tegishli bo‘ladi. O‘quvchining m‘naviy-ruhiy saviyasi, tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda badiiy asar konsepsiyasi alohida ta‘kidlanib, ochiq-oydin ifoda etiladi. Inson va borliq mohiyatiga ko‘ra, konsepsiya bir butunlikni tashkil etadi. Masalani muayyan ijodkorning o‘z konsepsiyasi yoki alohida olingan haqiqiy san‘at asarining konsepsiyasi tarzida qo‘yish ham mumkin. Boshqa jihatdan, badiiy asar konsepsiyasi unda tasvirlangan badiiy-estetik, obrazli dunyo orqali hayotni anglash mexanizmi- usuli bo‘lib ham maydonga chiqadi.

Xullas, Isajon Sulton “Boqiy darbadar” asarida muallif niyatini amalga oshirish uchun syujetning barcha turlarida foydalandi. Romanda badiiy syujetning xilma-xilligi muallif imkoniyatlarini kengaytirdi, uning uslubiy o‘ziga xosligini ta‘min etdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Quronov D . O‘ylashga undovchi asar. Sharq yulduzi.2010.
2. Isajon Sulton “Boqiy darbadar” romani “Sharq yulduzi” jurnali 2011.